

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 9

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA INTERAKSION DEYKTIK MAYDONNING PRAGMALINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Usmonova Mexrikamol Odiljonovna

Andijon davlat chet tillari instituti, tayanch doktorant.

e-mail: mehrikamolusmonova137@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0001-6117-6865>

Annotatsiya.

Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida interakSION deYktik maydonning pragmalIngvistik xususiyatlari qiyosiy aspektda tadqiq etiladi. Muloqot jarayonida so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi munosabatlarni shakllantiruvchi shaxs, ijtimoiy va diskursiv deYksis birliklarining kommunikativ-pragmatik vazifalari tahlil qilinadi. Ingliz va o'zbek tillaridagi murojaat shakllari, shaxs olmoshlari, kommunikativ masofani ifodalovchi vositalar hamda nutq ishtirokchilarining ijtimoiy maqomini belgilovchi birliklarning interakSION deYktik maydondagi o'rni aniqlanadi. Tadqiqotda qiyosiy-pragmatik tahlil asosida ikki tilda interakSION deYksisning universal va milliy-madaniy xususiyatlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: deYksis, interakSION deYksis, deYktik maydon, pragmalIngvistika, shaxs deYksisi, ijtimoiy deYksis, diskursiv deYksis, kommunikativ masofa, nutqiy muloqot, ingliz tili, o'zbek tili.

ПРАГМАЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ИНТЕРАКЦИОНАЛЬНОГО ДЕЙКТИЧЕСКОГО ПОЛЯ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Усмонова Мехрикамо́л Оди́лджо́новна

Андижанский государственный институт иностранных языков, базовый докторант.

Аннотация.

В данной статье в сравнительном аспекте исследуются прагмалингвистические особенности интеракционного дейктического поля в английском и узбекском языках. Анализируются коммуникативно-прагматические функции единиц личностного, социального и дискурсивного дейксиса, формирующих отношения между говорящим и слушающим в процессе коммуникации. Определяется роль форм обращения, личных местоимений, средств выражения коммуникативной дистанции, а также единиц, обозначающих социальный статус участников речевого взаимодействия, в интеракционном дейктическом поле английского и узбекского языков. На основе сравнительно-прагматического анализа раскрываются универсальные и национально-культурные особенности интеракционного дейксиса в двух языках.

Ключевые слова: дейксис, интеракционный дейксис, дейктическое поле, прагмалингвистика, личностный дейксис, социальный дейксис, дискурсивный дейксис, коммуникативная дистанция, речевое общение, английский язык, узбекский язык.

PRAGMALINGUISTIC FEATURES OF THE INTERACTIONAL DEICTIC FIELD IN ENGLISH AND UZBEK

Usmonova Mexrikamol Odiljonovna

Andijan State Institute of Foreign Languages, PhD Student.

Abstract.

This article comparatively examines the pragmalinguistic features of the interactional deictic field in English and Uzbek. It analyzes the communicative-pragmatic functions of personal, social, and discourse deixis that shape the relationship between speakers and listeners in the process of communication. The study identifies the role of forms of address, personal pronouns, linguistic means expressing communicative distance, and units indicating the social status of speech participants within the interactional deictic field of English and Uzbek. Based on a comparative-pragmatic analysis, the study reveals both universal and national-cultural features of interactional deixis in the two languages.

Keywords: deixis, interactional deixis, deictic field, pragmalinguistics, personal deixis, social deixis, discourse deixis, communicative distance, speech communication, English, Uzbek.

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda til birliklarini faqat grammatik yoki semantik jihatdan emas, balki ularning real kommunikativ vaziyatdagi funksiyasi bilan bog'liq holda o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu nuqtayi

nazardan, pragmalingsvistikaning muhim tadqiqot obyektlaridan biri bo'lgan deysis hodisasi so'zlovchi, tinglovchi, zamon, makon va diskurs o'rtasidagi munosabatlarni ifodalovchi murakkab kommunikativ mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Deyktik birliklar nutqiy vaziyatni tashkil etuvchi asosiy omillarni til orqali belgilash, kommunikativ rollarni aniqlashtirish hamda nutq ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

An'anaviy tilshunoslikda deysis, asosan, shaxs, makon va zamon kategoriyalari doirasida o'rganilgan bo'lsa, zamonaviy pragmatik va diskursiv tadqiqotlarda uning ijtimoiy, matniy, emotsional hamda interaksion jihatlariga ham katta e'tibor berilmoqda. Ayniqsa, interaksion deysis muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi ijtimoiy va psixologik masofa, kommunikativ mavqe, murojaat strategiyasi, hurmat va yaqinlik kabi pragmatik munosabatlarni ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli interaksion deyktik maydonni til tizimining alohida funksional-pragmatik sohasi sifatida tadqiq etish dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi.

Ingliz va o'zbek tillari turli tipologik va madaniy tizimlarga mansub bo'lib, ularda interaksion munosabatlarni ifodalash vositalari ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ingliz tilida shaxslararo munosabat ko'pincha olmoshlar, murojaat birliklari, modal vositalar va kontekstual strategiyalar orqali ifodalansa, o'zbek tilida bu munosabatlar olmoshlarning differensial qo'llanishi, hurmat shakllari, qarindoshlik atamaları, ijtimoiy unvonlar, murojaat birliklari hamda fe'l shakllari yordamida yanada aniqroq namoyon bo'ladi. Xususan, o'zbek tilidagi "sen" va "siz" qarama-qarshiligi hamda ingliz tilidagi "you" birligi o'rtasidagi funksional farq interaksion deysisning qiyosiy tahlili uchun muhim material hisoblanadi.

Interaksion deyktik maydonning shakllanishida shaxs deysisi, ijtimoiy deysis va diskursiv deysis o'zaro uzviy bog'liq holda faoliyat ko'rsatadi. So'zlovchi o'zining va suhbatdoshining kommunikativ mavqeyini muayyan til birliklari orqali belgilaydi, bu esa nutqning rasmiy yoki norasmiyligi, ijtimoiy masofa, yaqinlik darajasi, kommunikativ maqsad va vaziyat bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Shu jihatdan, interaksion deysis faqat grammatik ko'rsatkich emas, balki ijtimoiy-madaniy va pragmatik ma'no tashuvchi vosita sifatida qaralishi lozim.

Ingliz va o'zbek tillaridagi interaksion deyktik vositalarni qiyosiy o'rganish ikki tilning kommunikativ xususiyatlari, milliy-madaniy qadriyatlarini hamda nutqiy odob normalari o'rtasidagi farqlarni aniqlash imkonini beradi. Bunday yondashuv, bir tomondan, deysis nazariyasining pragmalingsvistik jihatlarini chuqurlashtirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, tarjimashunoslik, madaniyatlararo kommunikatsiya va xorijiy til o'qitish metodikasi uchun ham nazariy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi ingliz va o'zbek tillarida interaksion deyktik maydonni tashkil etuvchi asosiy til birliklarini aniqlash, ularning pragmatik va kommunikativ funksiyalarini qiyosiy tahlil qilish hamda universal va milliy-madaniy xususiyatlarini ochib berishdan iborat. Tadqiqotda shaxs, ijtimoiy va diskursiv deysis birliklarining nutqiy vaziyatda namoyon bo'lishi, kommunikativ masofani shakllantirishdagi roli va ikki tildagi funksional farqlari asosiy tahlil obyekti sifatida belgilanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Deyksis hodisasining nazariy asoslari XX asr tilshunosligida Karl Bühler tadqiqotlari bilan tizimli tus olgan. Olimning "Sprachtheorie" asarida tilning deyktik maydoni (*deictic field / Zeigfeld*) alohida nazariy tushuncha sifatida ajratilib, deyktik birliklarning nutq vaziyati, so'zlovchi va kommunikativ makon bilan bog'liqligi asoslangan. Bühler deysisni nutqiy faoliyatning muayyan koordinatalarga tayanuvchi mexanizmi sifatida talqin qiladi. Uning konsepsiyasida so'zlovchi nutqiy orientatsiyaning markazi vazifasini bajaradi va boshqa deyktik ko'rsatkichlarning talqini ana shu markazga nisbatan shakllanadi. Mazkur qarash keyingi tadqiqotlarda "deyktik markaz" tushunchasining rivojlanishiga nazariy zamin yaratgan.

Charles J. Fillmore deysis nazariyasini bevosita kommunikativ vaziyat bilan bog'lab, uni shaxs, makon, zamon, ijtimoiy munosabat va diskursga daxldor til birliklari orqali tushuntiradi. Uning "Lectures on Deixis" asarida deyktik ifodalarning mazmunini aniqlash uchun gapning grammatik tuzilishini bilishning o'zi yetarli emasligi, so'zlovchi kimligi, nutq qachon va qayerda yuz berayotgani, adresatning mavqeyi hamda kommunikativ kontekstni ham hisobga olish zarurligi ko'rsatiladi. Fillmorening yondashuvi interaksion deysis uchun ayniqsa muhim, chunki bunda deyktik birliklarning referensial ma'nosidan tashqari, muloqot ishtirokchilarining o'zaro munosabati ham tahlil markaziga chiqadi.

John Lyons ham deysisni semantika va pragmatika tutashgan nuqtada yuzaga keladigan hodisa sifatida ko'rib, nutq birliklarining referensiyasi ko'pincha kommunikativ vaziyatdan tashqarida to'liq aniqlanmasligini ta'kidlaydi. Stephen C. Levinson esa deysis nazariyasini pragmalingsvistika doirasida yanada tizimlashtirib, shaxs (*person*), makon (*place*), zamon (*time*), diskurs (*discourse*) va ijtimoiy (*social*) deysis turlarini farqlaydi. Ayniqsa, ijtimoiy deysisning alohida tur sifatida qaralishi so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi ijtimoiy maqom, masofa, hurmat va yaqinlik munosabatlarini lingvistik vositalar yordamida tahlil qilish imkoniyatini kengaytiradi. Shu sababli Levinson tasnifi ingliz va o'zbek tillarida interaksion deyktik maydonni qiyosiy o'rganish uchun asosiy nazariy manbalardan biri hisoblanadi.

Interaksion munosabatlarning deyktik ifodalanishini tushuntirishda Roger Brown va Albert Gilman tomonidan ishlab chiqilgan "hokimiyat va birdamlik" (*power and solidarity*) konsepsiyasi ham alohida ahamiyatga ega. Olimlar Yevropa tillaridagi ikkinchi shaxs olmoshlarining qo'llanishini o'rganib, murojaat shaklining tanlanishi faqat grammatik hodisa emas, balki suhbatdoshlarning ijtimoiy mavqeyi, o'zaro masofasi va birdamlik darajasiga bog'liqligini ko'rsatgan. Bu nazariy qarash o'zbek tilidagi *sen-siz* oppozitsiyasi bilan ingliz tilidagi *yagona you* shaklini qiyoslashda metodologik jihatdan muhimdir. O'zbek tilida olmosh tanlovi bevosita hurmat, yosh, ijtimoiy mavqe va kommunikativ yaqinlikni ko'rsata olsa, zamonaviy ingliz tilida bunday munosabat ko'proq murojaat shakllari, unvonlar, modal birliklar, xushmuomalalik strategiyalari va kontekst orqali yuzaga chiqadi.

Michael Silversteinning indeksikallik haqidagi qarashlari deytik birliklarning ijtimoiy mazmunini chuqurroq izohlash imkonini beradi. Olim til belgilarining ayrimlari nafaqat muayyan obyekt yoki shaxsga ishora qilishini, balki kommunikativ vaziyatdagi ijtimoiy munosabat, rol va madaniy me'yorlarni ham indekslashi mumkinligini ko'rsatadi. Uning "shifter" va indeksikal belgilar haqidagi nazariyasi til shakli bilan ijtimoiy kontekst o'rtasidagi munosabatni tushuntirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Demak, interaksion deytik maydonni faqat "men – sen – bu yer – hozir" kabi klassik koordinatalar doirasida emas, balki nutq ishtirokchilarining ijtimoiy o'zaro munosabatlarini belgilovchi indeksikal vositalar tizimi sifatida ham tadqiq qilish zarur.

William F. Hanks deyksisga sotsiomadaniy yondashib, referensiya va deytik tanlovning tabiiy kommunikativ amaliyot bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi. Uning "Referential Practice: Language and Lived Space among the Maya" monografiyasida deytik birliklarning ma'nosi faqat formal til tizimiga emas, balki ishtirokchilarning o'zaro orientatsiyasi, kundalik muloqoti, idrok jarayonlari hamda madaniy tajribasiga bog'liq holda shakllanishi asoslanadi. Hanksning ushbu yondashuvi ingliz va o'zbek tillaridagi deytik vositalarni milliy-madaniy kontekst bilan bog'lab o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Chunki bir xil kommunikativ vazifa ikki tilda turli grammatik, leksik yoki pragmatik vositalar orqali bajarilishi mumkin.

Sophia Marmaridou deyksisni kognitiv-pragmatik nuqtayi nazardan talqin qilib, uning insonning kommunikativ vaziyatni konseptuallashtirishi bilan bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, pragmatik ma'no lingvistik shakl, kognitiv jarayon va ijtimoiy-madaniy tajribaning o'zaro ta'siri orqali yuzaga keladi. "Pragmatic Meaning and Cognition" asarida deyksisga maxsus bob ajratilgani ham ushbu hodisaning pragmatik ma'no shakllanishidagi markaziy o'rnini ko'rsatadi. Mazkur konsepsiya interaksion deytik birliklarni kommunikantlarning makon yoki zamondagi o'rnini ko'rsatuvchi vositalargina emas, balki suhbatdoshlar o'rtasidagi yaqinlik, masofa va kommunikativ pozitsiyani konseptuallashtiruvchi birliklar sifatida talqin qilish imkonini beradi.

O'zbek tilshunosligida pragmatik mazmun, nutqiy faoliyat va kommunikativ kontekst masalalarini o'rganishda Sh. Safarovning "Pragmalingvistika" monografiyasi muhim nazariy manbalardan biridir. Muallif pragmalingvistikaning nazariy asoslarini umumlashtirib, til birligining mazmuni uning real nutqiy qo'llanishi, kommunikativ maqsad va ijtimoiy vaziyat bilan aloqador holda shakllanishini yoritadi. Asarda etnopragsmatika, sotsiopragmatika va qiyosiy pragsmatika kabi yo'nalishlarga ham e'tibor qaratilishi o'zbek tilidagi deytik birliklarni milliy kommunikativ me'yorlar bilan bog'lab tadqiq qilish uchun muhim nazariy asos yaratadi. Zamonaviy o'zbek tilshunosligida D. Pulatova tomonidan o'zbek badiiy matnlaridagi shaxs deyksisi sotsiopragmatik jihatdan o'rganilib, shaxsga ishora qiluvchi birliklarning kommunikativ, emotsional va ijtimoiy funksiyalari tahlil qilingan.

Mavjud tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, deyksisning shaxs, makon, zamon, ijtimoiy va diskursiv turlari jahon tilshunosligida keng o'rganilgan bo'lsa-da, ingliz va o'zbek tillarida aynan interaksion deytik maydonni yagona funksional-pragmatik tizim sifatida qiyoslash masalasi yetarlicha tizimlashtirilmagan. Shu bois mazkur tadqiqotda "interaksion deytik maydon" tushunchasi shaxs deyksisi, ijtimoiy deyksis, diskursiv deyksis, murojaat shakllari hamda kommunikativ masofani ifodalovchi vositalarning o'zaro funksional aloqadorligini aks ettiruvchi tahliliy model sifatida qo'llanadi. Bunday yondashuv ingliz va o'zbek tillarida kommunikantlarning so'zlovchi–adresat, yaqinlik–masofa, tenglik–ierarxiya, rasmiylik–norasmiylik munosabatlarining qanday lingvistik vositalar bilan shakllantirilishini qiyosiy-pragmatik jihatdan ochib berishga imkon beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda asosiy metod sifatida qiyosiy-pragmatik tahlil metodi qo'llanildi. Ushbu metod ingliz va o'zbek tillarida interaksion deytik maydonni tashkil etuvchi birliklarning kommunikativ vazifalari, pragmatik ma'nolari hamda nutq ishtirokchilari o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni ifodalash xususiyatlarini o'zaro qiyoslash imkonini beradi.

Tahlilda shaxsga murojaat qilish, kommunikativ masofa, ijtimoiy mavqe, hurmat, yaqinlik, rasmiylik va norasmiylikni ifodalovchi deytik vositalar asosiy mezon sifatida olindi. Ingliz tilidagi I, we, you, sir, madam, Mr/Ms, shuningdek kontekst orqali yuzaga chiqadigan pragmatik vositalar o'zbek tilidagi men, biz, sen, siz, aka, opa, ustoz, domla kabi birliklar bilan ularning real kommunikativ funksiyasi nuqtai nazaridan qiyoslandi.

Qiyosiy-pragmatik tahlil jarayonida til birliklari uch asosiy parametr bo'yicha baholandi: so'zlovchi–adresat munosabati, kommunikativ masofa va ijtimoiy-pragmatik vazifa. Masalan, o'zbek tilidagi sen–siz oppozitsiyasi yosh, hurmat, ijtimoiy mavqe va yaqinlik darajasini bevosita ifodalasa, ingliz tilidagi you shakli mazkur farqlarni grammatik jihatdan ajratmaydi. Bunday holatda kommunikativ masofa murojaat shakllari, modal konstruksiyalar, xushmuomalalik vositalari hamda nutqiy kontekst orqali aniqlanadi.

Mazkur metod orqali ingliz va o'zbek tillaridagi interaksion deytik birliklarning umumiy va farqli xususiyatlarini aniqlash, shuningdek, ularning milliy-madaniy hamda pragmatik omillar ta'sirida yuzaga keladigan funksional xususiyatlarini izohlash ko'zda tutiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ingliz va o'zbek tillaridagi interaksion deytik maydonning qiyosiy-pragmatik tahlili ikki tilda so'zlovchi va adresat o'rtasidagi munosabat turlicha lingvistik vositalar orqali ifodalanishini ko'rsatadi. Ayniqsa, shaxs olmoshlari, murojaat birliklari, hurmat va yaqinlikni ifodalovchi shakllar hamda xushmuomalalik strategiyalari interaksion deyksisning asosiy ko'rsatkichlari sifatida namoyon bo'ladi. Ingliz tilida kommunikativ masofa ko'pincha grammatik shaklning o'zidan emas, balki murojaat birligi, modal fe'l, iltimos konstruksiyasi va umumiy nutqiy kontekstdan anglashilsa, o'zbek tilida bu munosabat ko'pincha morfologik va leksik shakllarda bevosita aks etadi.

Birinchi muhim farq ikkinchi shaxs deyksisida kuzatiladi. Zamonaviy ingliz tilida you olmoshi bir shaxsga ham, bir necha shaxsga ham, rasmiy va norasmiy vaziyatlarda ham qo'llanishi mumkin. Masalan, "Could you help me, please?"

jumlasidagi you suhbatdoshning yoshi yoki ijtimoiy mavqeini grammatik jihatdan ko'rsatmaydi. O'zbek tilida esa mazkur jumla vaziyatga qarab "Iltimos, menga yordam bera olasizmi?" yoki "Menga yordam bera olasanmi?" shaklida ifodalanadi. Birinchi variantdagi siz va -siz ko'rsatkichlari hurmat yoki ijtimoiy masofani, ikkinchi variantdagi sen va -san shakllari esa yaqinlik, tenglik yoki yoshi kichik adresatga murojaatni bildiradi. Demak, o'zbek tilida interakcion deysis grammatik shaklda ancha ochiq kodlangan.

Mazkur farq oddiy salomlashuv jarayonida ham namoyon bo'ladi. Ingliz tilidagi "How are you?" savoli turli yosh va mavqedagi suhbatdoshlarga deyarli bir xil grammatik shaklda qo'llanishi mumkin. O'zbek tilida esa "Qalaysiz?", "Qalaysan?", "Yaxshimisiz?" kabi shakllarning tanlanishi kommunikantlar o'rtasidagi masofani bevosita belgilaydi. Masalan, talabaning professoriga "Ustoz, yaxshimisiz?" tarzida murojaat qilishi tabiiy bo'lsa, yaqin do'stlar orasida "Qalaysan?" shaklining ishlatilishi odatiy hisoblanadi. Bu holatda o'zbek tilidagi olmosh va fe'ning shaxs-son shakli adresatning kommunikativ maqomini bir vaqtning o'zida indekslaydi.

Murojaat birliklari ham interakcion deysis maydonning faol qatlamini tashkil qiladi. Ingliz tilida rasmiy muloqotda Mr Smith, Ms Brown, Professor Johnson, Doctor Wilson, sir, madam kabi birliklar qo'llanib, suhbatdoshning ijtimoiy yoki professional mavqei belgilanadi. Masalan, "Professor Brown, could I ask you a question?" jumlasida Professor Brown murojaat shakli adresatga nisbatan institutsional masofani saqlaydi. O'zbek tilida bunga "Ustoz, sizdan bir savol so'rasam bo'ladimi?", "Professor, bir savolim bor edi" kabi shakllar mos keladi. Biroq o'zbek tilida aka, opa, amaki, xola, ustoz, domla singari birliklar biologik qarindoshlik doirasidan tashqarida ham kommunikativ hurmat va ijtimoiy yaqinlikni bildiradi. Masalan, begona katta yoshli kishiga "Aka, bu manzil qayerda?" yoki ayol kishiga "Opa, yordam bera olasizmi?" tarzida murojaat qilish o'zbek nutqiy madaniyatida tabiiy hodisadir.

Ingliz tilida esa bunday qarindoshlik terminlarini begona shaxsga murojaat sifatida ishlatish ancha chegaralangan. Shu sababli o'zbekcha "Aka, bir daqiqa qarab yuboring" jumlasini ingliz tiliga so'zma-so'z "Brother, look here for a minute" shaklida tarjima qilish pragmatik jihatdan mos kelmasligi mumkin. Tabiiy inglizcha variant "Excuse me, could you help me for a moment?" tarzida beriladi. Demak, tarjimada deysis ekvivalentlik formal birliklarning to'g'ridan-to'g'ri mosligi emas, balki kommunikativ funksioning saqlanishi bilan belgilanadi.

Interakcion deysis xushmuomalilik strategiyalarida ham yaqqol ko'rinadi. Ingliz tilida ijtimoiy masofani saqlashda could, would, may, shuningdek please, excuse me, would you mind kabi birliklarning roli katta. Masalan, "Open the window" bevosita buyruq bo'lsa, "Could you open the window, please?" shakli pragmatik jihatdan yumshatilgan va masofali murojaatdir. O'zbek tilida bu farq "Derazani och" va "Iltimos, derazani ochib yubora olasizmi?" shakllari orqali ifodalanadi. Biroq o'zbekcha ikkinchi variantda modal-xushmuomalilik vositalari bilan bir qatorda fe'ning hurmat shakli ham interakcion munosabatni belgilaydi.

1-jadval. Ingliz va o'zbek tillarida interakcion deysis vositalarning qiyosiy-pragmatik xususiyatlari

Tahlil mezonlari	Ingliz tilidagi misol	O'zbek tilidagi misol	Interakcion-pragmatik xususiyat
Ikkinchi shaxs deysisi	Can you help me?	Menga yordam bera olasanmi? / bera olasizmi?	Inglizcha you neytral; o'zbekcha sen/siz yaqinlik va masofani grammatik belgilaydi
Hurmatli murojaat	Professor Brown, may I ask a question?	Ustoz, sizdan bir savol so'rasam bo'ladimi?	Har ikki tilda maqom ko'rsatiladi, o'zbek tilida hurmat fe'l shakliga ham ko'chadi
Norasmii yaqinlik	Hey, are you coming with us?	Hoy, sen ham biz bilan borasanmi?	Norasmii kontekst ikki tilda ham mavjud, o'zbek tilida sen yaqinlikni aniq kodlaydi
Notanish shaxsga murojaat	Excuse me, could you tell me the way?	Aka/Opa, yo'lni aytib yubora olasizmi?	O'zbek tilida qarindoshlik terminlari ijtimoiy deysis vazifa bajaradi
Rasmiy iltimos	Could you send the document, please?	Iltimos, hujjatni yubora olasizmi?	Ingliz tilida modal vosita, o'zbek tilida modal vosita + hurmat shakli faol
Bevosita buyruq	Come here.	Bu yerga kel.	Ikkala tilda ham ierarxiya yoki yaqinlikni bildirishi mumkin
Yumshatilgan buyruq	Would you come here for a moment, please?	Bir daqiqaga bu yerga kelib ketsangiz.	Pragmatik yumshatish kommunikativ masofani saqlaydi
Ijtimoiy maqom	Mr Smith / Dr Wilson / Professor Lee	ustoz / domla / doktor / professor	Unvon va maqom interakcion deysisning ijtimoiy komponentini yuzaga chiqaradi
Salomlashuvdagi masofa	How are you?	Qalaysan? / Qalaysiz?	Ingliz tilida shakli neytrallik, o'zbek tilida grammatik differentsiallik mavjud
Guruhga murojaat	Are you ready?	Sizlar tayyormisiz?	Inglizcha you sonni kontekstdan oladi; o'zbekcha sizlar ko'plikni ochiq ko'rsatadi

Jadvaldagi qiyosiy material shuni ko'rsatadiki, ingliz tilidagi interakcion deysis ma'no ko'proq analitik-

